

Gilamchilik-amaliy san'atning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida

Qodirova Mashhura

Urganch davlat universiteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, gilam, palos, kigiz.

Key words: practical art, carpet, palos, felt.

Ключевые слова:
практическое искусство, ковер, палос, войлок.

Abstract

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy san'atning yetakchi tarmoqlaridan biri, milliy madaniyatimizni o'zida aks ettiradigan gilamchilik sohasiga oid ma'lumotlar berib o'tildi. Gilamchilik faoliyati bo'yicha qilingan ilmiy ishlar, uning tarixi va rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqildi.

Annotation: This article provides information about one of the leading branches of applied art, the field of carpet making, which reflects our national culture. Scientific works on carpet making, its history and stages of development were reviewed.

Аннотация: В данной статье представлена информация об одной из ведущих отраслей прикладного искусства – области ковроделия, отражающей нашу национальную культуру. Рассмотрены научные труды по ковроделию, его истории и этапам развития.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023
LWAB.

Milliy istiqlol tufayli ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ilm-fanning hamma yo'nalishlarida bo'lgani kabi tilshunoslik sohasida ham o'z ifodasini topmoqda. Chunki "biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur".[1:53] O'zbek tilshunosligida sohaviy terminlar, adabiy til, xalq so'zlashuv nutqi va shevalar leksikasi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu sohada ancha yutuqlarga erishilgan. Xalqimizning tarixini va milliy madaniy an'alarini aks ettiruvchi leksik tarkibni mukammal o'rganishda moddiy madaniyat yodgorliklari muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini o'zida saqlab, bugungi kunda uni yanada rivojlantirib kelayotgan amaliy san'at tarmoqlarini kuzatish, uning leksikasini ilmiy tadqiq qilish juda zarur hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida amaliy san'at leksikasini o'rganishga katta hissa qo'shgan olim professor S.

Ibrohimovdir. U o'zbek tilining bir qancha kasb-hunar tarmoqlari qatori miskarlik, zargarlik, kulollik, naqqoshlik, tunikasozlik kabi bir qancha amaliy san'ati tarmoqlari leksikasini viloyatlar miqyosida to'plab, lingvistik tahlil qilgan.[2:132]

Amaliy san'at leksikasi xalqimiz hayotida qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan, rivojlanayotgan turli kasb-hunar sohalariga oid mehnat jarayonida vujudga kelgan maxsus so'z-atamalarga juda boydir. Xususan, xalqimizning asrlar davomidagi ijodiy mehnati zaminida yaratilgan beqiyos gilamchilik sohasi leksikasini to'plash va lingvistik tahlil qilish o'zbek tilining leksik qatlamlarini yoritish-dialektologiya va til tarixini o'rganishda turli tipdagi lug'atlar, ayniqsa, izohli lug'at tuzishda amaliy va nazariy ahamiyatga egadir. Gilamchilik san'ati amaliy san'atning xalq tarixi sahifalari uning o'tmishi va hozirgi kunini aks ettiruvchi insoniyat olamining ma'naviy dunyosini o'ziga xos tarzda ochib beruvchi alohida tarmog'i hisoblanadi. Bu san'at ham tarixiy ham badiiy jihatdan muhim boyluk sifatida o'zining qadimiy traditsiyalarini izchillik bilan davom ettirib kelmoqda. Shu jihatdan gilamchilik sohasi go'yo xalq badiiy ijodining qimmatbaho tomchilari yig'ib kelayotgan tabarruk idishga o'xshaydi. Ammo san'atning bu tarmog'i dastlab paydo bo'lgan davrida qanday bo'lsa, shundayligicha emas, ijodiy qayta ishlangan, takomillashgan, yangi-yangi traditsiyalar bilan boyigan shaklda davom etmoqda. Haqiqatan ham, gilamchilik san'ati xalqimizning nozik didi, estetik zavqi, ichki dunyosi, ijoddagi badiiy traditsiyalarning uzoq-uzoqlarga borib taqaladigan qadimiy ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan kollektiv ijod mahsulidir.

O'rta Osiyo xalqlari san'atini birinchi bo'lib tadqiq etgan olimlardan N.Burdukov: "Sharq gilamchiligi badiiy ijodning eng qadimiy shakllaridan bo'lib, u bilan faqat ayollar shug'ullanadilar"[3:37], deb yozadi. Rostdan ham bu an'ana gilam to'qish qo'l mehnatga asoslangan joylarda hozirgacha ham davom etib kelmoqda. Xususan, Xorazm vohasida ham. Sharq gilamchiligi bilan Yevropa olimlari ko'pdan qiziqqa boshlagan bo'lsalar ham, amaliy san'atning bu tarmog'i xususida haqiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borish XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlangan. Bu borada A.A.Bogabulovning O'rta Osiyoga sayohati davrida to'plagan kolleksiyalari asosida tuzilgan albom diqqatga sazovordir. O'rta Osiyo xalqlari gilamchiligi tarixi, bu san'atning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda A.A.Semyonovning "Rus Turkistoni gilamlari" asari muhim ahamiyatga ega. Olimlarning ta'kidlashicha, O'rta Osiyo gilamchiligi uch asosiy guruhga bo'linadi va ular bilan shu ko'chmanchi urug'lar shug'ullangan:

1. Turkmanlar;
2. O'zbeklar;
3. Qirg'izlar.

Haqiqatan ham gilamchilik bilan O'rta Osiyoda hozir ham turkmanlar, o'zbeklar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar muntazam shug'ullanib kelmoqdalar. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida yashovchi xalqlar o'tmishda ko'chmanchi hayot kechirganlar. Ko'chmanchilarning asosiy mashg'ulotlari esa chorvachilik bo'lgan. Har xil jundan to'qilgan gilam-palos buyumlari ko'chmanchi qabilalarning ehtiyojini qondirgan. Gilamlar, kigizlardan o'tovning ustini yopish, yerga to'shish hamda aravalarga soyabon qilish maqsadida foydalanganlar. O'tovning ichi va tashqarisini turli xil naqshdagi gilamlar bilan bezaganlar. Gilamlardan faqatgina bezak sifatida foydalanibgina qolmay yozda quyosh nuridan va qishda sovuqda saqlanish maqsadida ham foydalanganlar. O'rta Osiyo gilamlari, xususan, gilamchilik san'atiga oid buyumlar haqida qiziqarli ma'lumotlar bergan Italyan sayyohlik Marko Po'la gilam mahsuloti ko'chmanchilar o'tovining asosiy jihozi, ro'zg'or buyumlarining zaruriy tarkibi ekanligini, hatto o'tovning har bir qismi uchun alohida shaklli gilam to'qilgani yoxud gilamchilik mahsulotlarining

har biri o'ziga xos vazifa bajarishini aytib o'tadi. Chorvador xalqlarda gilam to'qish san'atining badiiy an'analari juda yuqori bo'lgan. Ularda gilam-palos uchun xomashyo doimo yetarli bo'lgan. Sababi sohaning asosiy xomashyo manbasi dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta, kanop, zig'ir va jun hisoblanadi. Shuning uchun ham bu badiiy traditsiya nihoyatda yuksak bo'lgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, qo'l mehnati va sodda ishlab chiqarish qurollariga asoslangan shahar sanoatining ko'pgina tarmoqlari mashinalashib, takomillashib bormoqda, ammo qo'l bilan gilam to'qish san'ati o'zining yashovchanligini namoyish etmoqda. Eng chidamli, yuqori sifatli gilamlar hamon o'sha qo'l mehnati bilan to'qilmoqda. Xususan, Xiva gilam fabrikasi mahsulotlari London, Jakarta, Sofiya kabi chet mamlakatlardagi vistavkalarda bir necha bor namoyish qilinib, yuqori baholarga sazovor bo'ldi, Respublikamizning ayrim G'allaorol, Urgut kabi tumanlarida mavjud patli gilam sexlari kengaytirilmoqda va yangidan qurilmoqda. Bu esa gilamchilik sohasiga qaratilayotgan alohida e'tibor hisoblanadi. Gilamchilik san'ati mahsulotlariga xalqimizning kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olib, Xiva gilam fabrikasi yanada kengaytirigan edi. Bular bir tomondan gilamchilik san'atining yoshovchanligi va taraqqiyotidan darak bersa, ikkinchi tomondan, amaliy san'atning bu sohaga oid lingvistik faktlarni o'rganish, tahlil etishning zarar ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Mavjud adabiyotlardan ma'lumki, o'zbek, turkman, ozarbayjon, qirg'iz, umuman, O'rta Osiyo gilamchiligi bilan tarixchi etnograf va san'atshunos olimlar ko'pdan qiziqqanlar. Masalan, B.Bulatov, T.Tursunova, L.Asomiddinova va boshqa olimlar shular jumlasidandir. Ammo bu soha leksikasiga bag'ishlangan maxsus lingvistik tatqiqot ishlari hali juda kam.

Manbalarda ko'rsatilishicha, O'rta Osiyoda gilam, sholcha-palos to'qish turli xildagi naqshli kigiz ishlab chiqarish san'ati chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, juda uzoq tarixga ega. Tadqiqotlarimiz boshida bunga to'xtalgan edik. Xalqimiz orasida gilam-palos buyumlaridan keng foydalanish – ularning o'ziga xos yashash sharoiti, hayot tarzi bilan izohlanadigan qadimiy, madaniy an'anadir. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan bu san'at moddiy madaniyat tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.I., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008.
2. Ibrohimov S., Farg'ona shevalari kasb-hunar leksikasi. -Toshkent, 1956.
3. Bulatov B., O'zbek xalq amaliy san'ati. -Toshkent 1982.
4. Mutalibov S., O'zbek tili leksikasi kechmishidan // O'zbek tili va adabiyoti. 1959, 2-son.